Ma'lumki, ayniqsa infratuzilma, energetika va ko'chmas mulk sohasiga oid investitsiya loyihalari katta kapital xarajatlarini talab qiladi. Aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan tashabbus qilingan ko'plab yirik loyihalarda, ayniqsa, loyihaning dastlabki bosqichlarida moliyalashtirish manbalarini topish dolzarb muammolardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ko'pchilik moliyaviy investorlar va strategik hamkorlar loyihaga jalb etilayotgan kapitalning kamida uchdan bir qismi allaqachon investitsiya qilinganidan keyingina qaror qabul qilishadi. Bu esa, aksiyadorlik jamiyatlarini bosqichma-bosqich moliyalashtirish manbalarini izlashga, shu jumladan, fond bozori, tijorat banklari, investitsion fondlar va xalqaro moliyaviy institutlar orqali mablag' jalb etishga undaydi.

Shu nuqtai nazardan, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda kapital tuzilmasining optimallashtirilgan modeli, kapital qiymati va investitsion xavflar tahlili asosiy nazariy va amaliy jihatlarni tashkil etadi. Ayniqsa, resurslar cheklangan sharoitda aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan diversifikatsiyalashgan moliyalashtirish usullaridan foydalanish, ya'ni o'z kapitali, qarz resurslari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi moliyaviy manbalarni uyg'unlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizda sanoat, xizmatlar sohasi, qurilish va boshqa strategik tarmoqlarda investitsion faollikni oshirish orqali aholi bandligi, daromadlari hamda iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ayni shu kontekstdan qaralganda, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha institutsional sharoitlarni takomillashtirish, qonunchilik bazasini mustahkamlash va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning izchil amalga oshirilishi, xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan uzoq muddatga mo'ljallangan strategik rivojlanish konsepsiyalarining ishlab chiqilishi natijasida, iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni yanada kuchaymoqda. Bu borada qabul qilingan davlat dasturlari asosida moliyalashtirish fondlarining tashkil etilishi, aholining mavjud jamg'armalarini investitsion muomalaga jalb etish va aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. [1] Aksiyadorlik jamiyatlari o'z investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish uchun fond bozorining imkoniyatlaridan foydalanmoqda. Jumladan, kapital bozorida aksiya va obligatsiyalarni chiqarish orqali resurslar jalb etish ushbu subyektlar uchun muhim moliyaviy vosita hisoblanadi.

Taniqli iqtisodchi U. Sharpning investitsion strategiyaga oid qarashlariga ko'ra, qimmatli qog'ozlarning daromadliligi va riskliligi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlovchi investitsion yondashuv – korporativ investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asosi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari uchun investor ishonchini qozonish va risklarni boshqarish fond bozori orqali moliyalashtirishning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardandir. [2]

Mazkur nuqtai nazarni rivojlantirgan iqtisodchi olimlardan biri Ya. Mirkin fond bozorlarining korporativ sektor uchun investitsiya moliyalashtirishdagi ahamiyatini tahlil qilib, aksiyadorlik kapitalining shakllanishida bozor ishtirokchilarining ishonch darajasini asosiy omil sifatida ko'rsatadi.[3] Unga ko'ra, MDH davlatlarida, jumladan O'zbekistonda ham, fond bozorida korporativ qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning pastligi, risk darajasining nisbatan yuqoriligi, institutsional ishtirokchilarning yetarli darajada rivojlanmaganligi fond bozori orqali investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Bunday sharoitda, U. Sharp ta'kidlaganidek, moliyaviy vositachilar tijorat banklari, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari va boshqa institutsional investorlar – aksiyadorlik jamiyatlari uchun fond bozori orqali kapital jalb etishda bilvosita, biroq muhim ishtirokchi sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali real sektor subyektlari investitsion loyihalarga kerakli moliyaviy resurslarni qamrab olishi mumkin. Modilyani–Miller teoremasiga ko'ra, mukammal bozor sharoitida korporatsiyaning qiymati uning kapital tuzilmasidan mustaqildir. Biroq, real sharoitda (soliqlar, bankrotlik xarajatlari, asimmetrik axborot mavjud bo'lgan holatda) kapital tuzilmasining tanlovi investorlar uchun muhim signal bo'lib xizmat qiladi. [4]

R. Brealey va S. Myerslarning fikricha, investitsiya qarorlarining asosi – kapitalning narxi, naqd pul oqimlari va riskni baholash hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyatlarida loyihalarning NPVsini hisoblash, kapital strukturasi bilan uyg'unlashtirish – investitsion strategiyaning markaziy qismini tashkil etadi. [5]



J. Tobinning qarashlaricha, agar biror kompaniyaning bozor qiymati (market value) uning aktivlarining almashtirish qiymatidan (replacement cost) yuqori bo'lsa, unda investitsiya qilish maqsadga muvofiq. Aksiyadorlik jamiyatlarining fond bozorida bahosi ularning investitsiya qarorlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. [6]

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan D.G'. G'ozibekovning fikriga ko'ra, investitsiya – bu mablag'larni aniq va ishonchli manbalar orqali jalb qilish, ularni asosli tarzda safarbar etish, risklarni boshqarish hamda kapital qiymatini saqlab qolgan holda kutilgan iqtisodiy samaradorlikka erishish jarayonidir [7]. Bu yondashuv ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida ahamiyatlidir, chunki ularning investitsion strategiyasi risklar va foyda o'rtasidagi optimal muvozanatga tayanadi. A.V. Vahabovga ko'ra, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini kapital bozorining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Moliyaviy menejmentda aksiyalar va obligatsiyalar orqali moliyalashtirish – uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishning asosiy manbai hisoblanadi. [8]

Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar va davlat siyosati asosida xulosa qilish mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda fond bozorining rivojlanishi, institutsional ishtirokchilarning faoliyati, shuningdek, xalqaro moliyaviy tajribalarning milliy amaliyotga implementatsiyasi alohida e'tibor talab etadi. Shu bois, ushbu sohada ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlar asosida moliyalashtirish manbalari va vositalarining takomillashtirilishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi olimlarining investitsiyalar va investitsiya faoliyatini moliyalashtirishning manbalari va usullarining nazariy jihatlariga bag'ishlangan ilmiy asarlari o'rganilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlarning qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladigan nazariy yondashuvlar ularning moliyaviy barqarorligi va strategik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yuqorida keltirilgan nazariyalar va tasniflar asosida AJlar uchun maqbul moliyalashtirish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi. Ayniqsa, fond bozori, kredit institutlari va investorlar bilan samarali hamkorlik, kapital tuzilmasining optimal shakllanishiga xizmat qiladi.

1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlari investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining ilmiy-nazariy tasnifi¹

Tasnif mezon	Manbalar turlari	Izoh (ilmiy asos)
Moliyalashtirish manbasining kelib chiqishi	- Ichki manbalar- Tashqi manbalar	Modigliani va Miller nazariyasi asosida kapital tuzilmasi qarorlariga ta'siri o'rganiladi (Modigliani & Miller, 1958)
Kapital shakllanish manbai (kelib chiqishiga ko'ra)	- Ichki kapital (milliy kapital)- Xorijiy kapital	Kapital harakatining liberallasuvi sharoitida AJlar uchun xorijiy investitsiyalar muhim resurs bo'lib xizmat qiladi
Mulk huquqiga ko'ra	- Shaxsiy mablag'lar- Qarz mablag'lar	Pecking Order Theory asosida korporatsiyalar avval ichki, keyin tashqi manbalarni afzal ko'rishadi (Myers & Majluf, 1984)
Moddiy-moddaviy shakli bo'yicha	- Pul mablag'lari- Moliyaviy aktivlar- Real (moddiy) aktivlar- Nomoddiy aktivlar	Sharpe (1964) tomonidan ishlab chiqilgan investitsiya portfeli nazariyasi asosida baholanadi
Moliyalashtirish muddati bo'yicha	- Uzoq muddatli manbalar (doimiy kapital)- Qisqa muddatli manbalar	Matching Principle asosida uzoq muddatli aktivlar uzoq muddatli manbalar bilan moliyalashtirilishi kerak
Foydalanish yo'nalishi bo'yicha	- Real investitsiyalar uchun manbalar- Moliyaviy investitsiyalar uchun manbalar	Real investitsiyalar – ishlab chiqarish aktivlarini yaratish; moliyaviy investitsiyalar – fond bozorida vositalarga sarmoya
Investitsiya jarayoni bosqichi bo'yicha	- Investitsiyalashdan oldingi- Investitsiya- Investitsiyadan keyingi bosqich manbalari	Gatti (2012) tomonidan asoslangan Project Finance modeli – har bir bosqich uchun alohida risk va moliyaviy strategiyalar talab etiladi

1 Muallif ishlanmasi

Investitsion resurslarning ushbu taqsimoti faqat real investitsiya loyihalarini amalga oshirishni ta'minlash jarayonida qo'llaniladi. Investitsiya faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uning investitsiya resurslarini maqsadli shakllantirish bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishning asosiy maqsadi investitsiya faoliyatining samarali natijalarini ta'minlash nuqtai nazaridan zarur investitsiya aktivlarini sotib olish ehtiyojlarini qondirish va ularning tuzilishini optimallashtirishdir. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usuli deganda loyihaning moliyaviy maqsadga muvofiqligini ta'minlash maqsadida investitsiya resurslarini jalb qilish tushuniladi.

2-jadval. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari afzalliklari va kamchilliklari²

Moliyalashtirish manbasi	Afzalliklari	Kamchilliklari
Ichki mablag'lar	Mustaqillikni saqlaydi Risk past Foydadan qayta sarmoya	Chegaralangan hajm Katta loyihalar uchun yetarli emas
Qarz mablag'lari	Soliq chegirmalari Moliyaviy leverage orqali ROE oshiradi	To'lov majburiyatlari yuqori Moliyaviy risk ortadi
Aksiya emissiyasi	Keng ommani jalb qiladi Dividend majburiy emas	Egasi huquqining kamayishi Bozor narxi ta'sirida pul oqimi noaniqligi
Obligatsiya emissiyasi	Uzun muddatli manba Investor uchun kamroq risk	Foiz to'lovlari majburiy Reyting talab qilinadi
Xorijiy investitsiyalar	Innovatsiya va texnologiya olib kirish Katta hajmli resurslar	Valyuta risklari Xorijiy investorlarga bog'liqlik
Davlat subsidiyalari yoki grantlar	Qaytarilmaydigan mablag'lar Ijtimoiy loyihalar uchun qulay	Cheklangan ko'lamda Maqsadli yo'naltirish shartlariga rioya qilish zarur

Yuqoridagi jadval va tahlillar aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda resurslarning manbai, shakli, muddati va bosqichlari bo'yicha to'g'ri strategik tanlov zarurligini ko'rsatadi. Har bir moliyalashtirish manbasi o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega bo'lib, ularni tanlashda kompaniyaning moliyaviy holati, rivojlanish strategiyasi hamda bozor sharoitlari inobatga olinishi zarur.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni bevosita moliyaviy instrumentlardan foydalanish bilan bog'liq bo'lib, bu holat aksiyadorlik jamiyatlarida investorlar manfaatdorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatida investitsiya faoliyatini tashkil etishda, avvalo, aksiyadorlarning iqtisodiy va moliyaviy manfaatlarini hisobga olgan holda, ularning kapitalini jalb etishga intiladi. Bu esa, o'z navbatida, aksiyadorlar ishtirokidagi investitsiya loyihalarining amalga oshirilish darajasini belgilaydi.

Milliy iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda turli manbalarni jalb qilish orqali tarmoqlar bo'yicha investitsion faollik dinamikasini tahlil qilish mumkin. Aksiyadorlik jamiyatlari misolida bu jarayon ularning moliyaviy resurslarga ega bo'lishi va ushbu resurslarni samarali taqsimlashi bilan uzviy bog'liqdir. Tarmoqlarning rivojlanishi va ularning investitsiyalarni jalb etish salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash orqali, aksiyadorlik jamiyatlarining bozor sharoitida raqobatbardoshligini baholash imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faoliyat sur'atlari va natijalari o'rtasidagi proporsional bog'liqlik mavjud.

3-jadval. "Olmaliq KMK" AJ ning investitsiya loyihalarini baholashda moliyaviy barqarorlik koeffitsiyentlarining o'zgarish ko'rsatkichlari tahlili³

Ko'rsatkichlar	Yillar						2023 yilni 2018 yildan farqi, (+;-)
	2018	2019	2020	2021	2022	2023	
Qarzga olingan va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti	1,15	0,95	0,77	0,75	1,81	1,25	0,1
Jami mablag'lardagi korxonaning o'ziga qarashli mablag'lar ulushi koeffitsiyenti	0,46	0,51	0,56	0,57	0,35	0,44	-0,02
Korxona jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag'larning ulushi koeffitsiyenti	0,76	0,87	0,87	0,81	0,76	0,84	0,08

² Muallif ishlanmasi

³ Muallif ishlanmasi



Korxona jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsiyenti	0,61	0,64	0,70	0,65	0,65	0,73	0,12
O'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti	-0,16	-0,35	-0,49	-0,22	-0,08	-1,14	0,98
Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti	0,55	0,60	0,56	0,39	0,50	0,64	0,09
Joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsiyenti	0,72	0,74	0,66	0,81	0,54	0,46	-0,26
Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning jadal harakatchanlik koeffitsiyenti	0,37	0,36	0,29	0,35	0,35	0,26	-0,11

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan ko'rsatkichlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy holatini yillik o'zgarishlar kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu tahlil jarayonida har bir ko'rsatkichning o'ziga xosligi, yillik tendensiyalar va ularning moliyaviy barqarorlikka ta'siri ko'rib chiqiladi.

Avvalo, qarzga olingan va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti ko'rib chiqilsa, bu ko'rsatkich korxonaning moliyaviy tuzilishida qarz kapitalining o'z mablag'lariga nisbatan qanchalik ko'p ekanligini anglatadi. 2018-yilda ushbu ko'rsatkich 1,15 ni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda 2020 va 2021-yillarda 0,75-0,77 gacha kamayib, qarzga bog'liqlik kamayganligi kuzatiladi. Ammo 2022-yilda bu ko'rsatkich keskin oshib, 1,81 ga yetgan, bu esa korxonaning qarz mablag'lariga katta darajada tayanayotganligini ko'rsatadi. 2023-yilda esa biroz pasayib, 1,25 ga tushgan. 2023-yilning 2018-yilga nisbatan o'sishi 0,1 birlikni tashkil qilgan, bu esa moliyaviy risklar darajasining sezilarli darajada oshganligini anglatadi. Bunday o'zgarishlar aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qarzlarni boshqaruvining muhimligini ko'rsatadi.

Jami mablag'lardagi korxonaning o'ziga qarashli mablag'lar ulushi koeffitsiyenti esa korxonaning moliyalashtirishdagi o'z kapitali ulushini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich 2018-yildan boshlab o'sish tendensiyasini ko'rsatib, 2021-yilda 0,57 ga yetgan. Bu o'z mablag'lari hisobiga faoliyatni kengaytirish imkonini bergan. Biroq, 2022-yilda ko'rsatkich keskin pasayib, 0,35 ga tushgan va 2023-yilda ham 0,44 da qolgan. 2018-yilga nisbatan 0,02 birlik kamayish aksiyadorlik jamiyatlarining o'z kapitali bilan ta'minlanishida zaiflashuvni bildiradi. Bu esa moliyalashtirishda tashqi manbalarga, ya'ni qarz va boshqa jalb qilingan kapitalga qaramlikning oshganidan dalolat beradi.

Korxonaning jami mulkida asosiy va moddiy aylanma mablag'larning ulushi koeffitsiyenti faoliyatning moddiy bazasi barqarorligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich 2018-yildan 2023-yilgacha 0,76 dan 0,84 gacha o'sib, 0,08 birlik ijobiy farqni namoyish etadi. Bu tendensiya aksiyadorlik jamiyatlarining moddiy aktivlarini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan investitsiyalarga ega ekanligini bildiradi.

Shuningdek, korxona jami mulkida uzoq muddatli aktivlar ulushi koeffitsiyenti ham barqaror o'sish ko'rsatmoqda — 2018-yildan 2023-yilgacha 0,61 dan 0,73 gacha oshgan, ya'ni 0,12 birlik ortish kuzatilgan. Bu o'z navbatida, aksiyadorlik jamiyatlarining uzoq muddatli investitsiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilayotganini va aktivlarning kapitalga bo'lgan ulushining mustahkamlanayotganini anglatadi.

Biroq, o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti ning tahlili moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan xavotir uyg'otadi. Ushbu ko'rsatkich 2018-yildan 2023-yilgacha doimiy ravishda manfiy qiymatlarda bo'lib, 2023-yilda -1,14 ga tushgan. Manfiy qiymatlar korxonaning o'z mablag'lari bilan ta'minlanishida keskin pasayish borligini bildiradi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatining o'z kapitali asosida investitsiyalarni amalga oshirish imkoniyatining sustlashganligidan dalolat beradi va moliyaviy xavflarning oshishiga olib kelishi mumkin.

Jalb qilingan kapital tarkibi koeffitsiyenti esa, aksincha, ijobiy tendensiyaning ko'rsatmoqda — 2018-yildan 2023-yilgacha 0,55 dan 0,64 gacha o'sib, 0,09 birlikga ortgan. Bu ko'rsatkich aksiyadorlik jamiyatlarining moliyalashtirishda tashqi kapital jalb qilishdagi faolligini oshirayotganini anglatadi, lekin bu bilan bog'liq risklar ham ko'payadi.

Moliyaviy barqarorlikni ko'rsatadigan yana bir muhim ko'rsatkich — joriy aktivlarning qarzga olingan kapitalga nisbati koeffitsiyenti kamayib bormoqda: 2018-yilda 0,72 dan 2023 yilda 0,46 gacha tushgan, ya'ni 0,26 birlik pasayish. Bu, korxonaning qisqa muddatli aktivlari qarzlarni bilan ta'minlashda sustlashganligini bildiradi, bu esa moliyaviy likvidlik va qisqa muddatli to'lov qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Oxirgi ko'rsatkich — korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning jadal harakatchanlik koeffitsiyenti ham pasayish tendensiyasida: 2018-yilda 0,37 dan 2023-yilda 0,26 gacha tushib, 0,11 birlik kamaygan. Bu mablag'larning samarali aylanish tezligining susayishidan, ya'ni likvidlik va operatsion samaradorlikning pasayishidan darak beradi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalarining tanlanishi aksiyadorlik jamiyatlari uchun nafaqat investitsiya faoliyatining iqtisodiy samaradorligini, balki investitsiyalardan olinadigan daromadning taqsimoti,



mavjud kapitaldan foydalanish darajasi hamda jamiyatning moliyaviy barqarorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Moliyalashtirish manbalarining tarkibi va tuzilishi aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy-huquqiy shakli, faoliyat ko'lamini va strategik maqsadlariga muvofiq ravishda shakllanadi.

Shu boisdan, aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish, ularning moliyaviy infratuzilmasini mustahkamlash, tashqi va ichki moliyaviy manbalarni oqilona tanlash orqali, nafaqat investorlarning ishonchini oshirishga, balki korxona kapitalining o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari va rivojlanayotgan yoki iqtisodiy inqirozga uchragan davlatlar uchun milliy iqtisodiyotning global texnik va texnologik darajasini saqlab qolish yoki uni yanada rivojlantirish investitsiya siyosatining samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Aynan shu nuqtai nazardan investitsiya qarorlarini qabul qilish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rag'batlantiruvchi siyosat milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi hamda raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim vositalardan biridir.

Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish jarayoni ayniqsa muhimdir, chunki ularning texnik va moliyaviy imkoniyatlari investitsiya samaradorligini bevosita belgilaydi. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlarda, jumladan respublikamizda, aksiyadorlik jamiyatlarini ichki va tashqi raqobatchilardan himoya qilish maqsadida import bojlari yoki boshqa tarif siyosatlari qo'llaniladi. Bu esa aksiyadorlik jamiyatlariga o'z mahsulotlarini ichki bozorda raqobatbardosh narxlarda emas, balki oshirilgan narxlarda sotish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday siyosat qisqa muddatda mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlagan bo'lsa-da, uzoq muddatda ularning innovatsion rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini takomillashtirish aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy barqarorligi va samarali rivojlanishi uchun muhim shartdir. Shu maqsadda quyidagi taklif va tavsiyalarni amalga oshirish tavsiya etiladi:

- aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish usullarini rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ushbu tajribalarni moslashtirish;
- moliyalashtirish manbalarining qiymatini baholash jarayonini soddalashtirish, shuningdek, ekspertiza muddatlarini uzaytirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali investitsiya jarayonini tezlashtirish;
- investitsiya tashabbuskorlari va tijorat banklari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, shu jumladan, ikki tomonlama ishonch asosida shartnomaviy munosabatlarni rivojlantirish orqali qarz resurslarini jalb qilishni osonlashtirish;
- moliyaviy resurslarning yetishmasligi va moliyalashtirishdagi murakkabliklarni bartaraf etish maqsadida aksiyadorlik jamiyatlari moliyalashtirishning noan'anaviy usullaridan - lizing, seleng, sinditsiyalashtirilgan kreditlar, venchur kapital, kradfoning va kraudinventing kabi innovatsion mexanizmlardan faol foydalanishni yo'lga qo'yishi.

Yuqoridagi chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi nafaqat aksiyadorlik jamiyatlarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish sifatini oshirishga, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlash va aholining farovonligini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bois, investitsiya siyosatini shakllantirishda aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati va moliyaviy instrumentlari muhim o'rin tutadi hamda ularning rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining umumiy raqobatbardoshligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, xalq so'zi 2017-yil 22-dekabr.
2. Шарп У. идр. Инвестиции. Пер. с англ.-М. ИНФРА-М, 2001. -С. 9-10.
3. Миркин Я. Рынок ценных бумаг России: воздействие фундаментальных факторов, прогноз и политика развития. – Москва: Альпина Паблицер. 2002. – С. 117.
4. Modigliani, F., & Miller, M.H. (1958). The Cost of Capital, Corporation Finance and the Theory of Investment. The American Economic Review, 48(3), 261–297.
5. Brealey, R.A., Myers, S.C., & Allen, F. (2014). Principles of Corporate Finance. McGraw-Hill Education.
6. Tobin, J. (1969). A General Equilibrium Approach to Monetary Theory. Journal of Money, Credit and Banking, 1(1), 15–29.
7. G'ozibekov D.G'. Investitsiyalarni moliyalashtirish muammolari - T.:2002. i.f.d. diss. avtoref. 11-14 b.
8. Vahabov, A.V. (2020). Moliyaviy menejment. – Toshkent: Iqtisodiyot.
9. Haydarov O'.A. "O'zbekistonda investitsiya faoliyatini moliyaviy boshqarishning zamonaviy holati". "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil dekabr №6. 8-b., (08.00.00, №12).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100